

AUTIZM SINDROMLI BOLALAR DIAGNOSTIKASI AUTIZM HAQIDA TUSHUNCHA, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI, BELGILARI VA TURLARI .



Annotation

Ushbu maqolada autizm sindromli bolalar diagnostikasi autizmning kelib chiqish sabablari turlari haqida yoritib berilgan

Tayanch so‘zlar: EBA, autizm sabablari ABA terapiya, muloqot, diagnostika, innovatsiya, exolaliya

Autizm Ushbu kasallikning dolzarbligi Butunjaxon Sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan 2001 yildanoq alohida ajratib ko‘rsatilib, shu yilning o‘zida “Psixiksalomatlik yili” deb e‘lon qilingan. 2015 yil 25-27 mart oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan “Autizm: innovatsion yondashuvlar va harakat strategiyasi” nomli ikkikchi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishida Rossiya, Fransiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Isroil va Butunjaxon sog‘liqni saqlash tashkiloti, O‘zbekistondagi BMT taraqqiyot Dasturi vakillari, tibbiyat odamlari, amaliy shifokorlar, autizm tashxisi bo‘lgan bolalar bilan ish olib boradigan pedagoglar, jamoatchilik tashkilotlarining vakillari, rivojlanishida alohida extiyojga ega bolalarning ota-onalari ishtirok etdilar. EBA(erta bolalar autizmi) sindromi nomi ilk bora 1943 yilda L.Kanner tomonidan tavsiflangan. Atrofimizda shunday insonlar borki, bizga hech bir qiyinchilik tug‘dirmaydigan qadam, ular uchun – mushkul vazifa, nazarimizda uzatsak har qayoqqa bemalol yetguvchi qo‘llarni osongina uzatish – amri mahol, bizga arzimasdek tuyulgan bir soniyalik suhbat – qiyin bir ishdir. XXI asrning tibbiyat taraqqiyotidagi yutuqlari tufayli, autizm tashxisiga ega bo‘lgan shaxslarga e’tibor,

Kimyo international university in
Tashkent
Maxsus pedagogika yo’nalishi
Najmetdinova Mohinur Hamza qizi
3-kurs talabasi

ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va ushbu shaxslarga nisbatan ijobiy munosabat oshib bormoqda.

Autizm (grekcha “auto” – “o'zim” degan so‘z) – bu ruhiyatning o‘ziga xos holati bo‘lib, ushbu tashxisga ega shaxs tashqi olam, atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaydi. U yolg‘izlikni yoqtiradi. Bir xil xatti-harakat va so‘zlarni takrorlaydi. O‘z olamida yashaydi. Fikrlashi, xatti-harakati Real voqelikdan uzelgan bo‘ladi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, bu tashxis ko‘pincha o‘g‘il bolalarda uchraydi. Kasallikka doir “autizm” terminini fanga 1912-yilda [E.Bleyler](#) kiritgan. Uning fikricha bunday odam o‘z olamida yashaydi. Fikrlashi boshqalarnikiga o‘xshamaydi. Ularning xatti-harakatlari real voqelik bilan bog‘liq emas. Bemorlarning harakatlarida hissiy kechinmalar asosiy o‘rin tutadi. Bu kasallik sindromi o‘g‘il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko‘p uchraydi. Simptomlarning har xilligi va kasallik o‘zgaruvchanligi ushbu kasallikni qiyinligidan dalolat beradi: sezilarsiz autistik xususiyatlardan to doimiy parvarish talab etilishigacha.

Autizmnинг kelib chiqish sabablari Olimlarning fikricha, homilani ona qornidalik davrida ma‘lum bir turdagи oqsillarning yetishmovchiligi, organizmda ikki xil og‘ir metalning, qo‘rg‘oshin va simobning ko‘payib ketishi, ekologik buzilishlar va homiladorlik paytida kuchli stressni boshdan kechirish kasallikka sabab bo‘ladi. Anemiya hamda qon bosimning oshishi, buyrakda bosim oshishi ham autizimga olib keladi. Yosh davrlari bo‘yicha bolalik autizmi – ilk yoshdan 11 yoshgacha, o‘smirlik autizmi — 11-18 yosh davrlarga bo‘linadi. Autizmni namoyon etuvchi belgilarida ijtimoiy qoloqlik, muloqotda o‘zi bilan gaplashish, har xil qo‘l harakatlari qilish, bolaning onasiga e’tiborsizligi (kulish, jismoniy harakat, ovoz chiqarish), "tayyorgarlik" holati yo‘qligi ya’ni uni ko‘tarishga uringanda qo‘llarini cho‘zmasligi, tizzalarida turishga harakat qilmasligi, emishdan butunlay to‘xtashi kuzatiladi. Shuningdek, jamoa bilan o‘ynashni istamaydi, ota-onasi va boshqalar bilan o‘ynaganda injiqlik qiladi, yolg‘iz o‘ynashni xohlaydi, ovoz, yorug‘likka sezuvchanlik oshib ketadi. Bundan tashqari qo‘rqitish, baqiriq, arg‘imchoq uchish kabi o‘yinlar paytida injiqlik qiladi, gapirish qobiliyati susayadi, hatto mutizm holati ham kuzatiladi.

So‘zlarni takrorlash (exolaliya), ota-onadan eshitgan iboralarni yoki multfilmda eshitgan so‘zlarni doimo aytib yuradi. Ovqatni tanlab yeydi, ishtahasi sust, uyqusi yomon bo‘ladi, buyruqlarni bajarmaydi, buyumlarni ko‘rsatsa qaramaydi, o‘z ismiga e‘tibor bermaydi, so‘zlashish qobiliyati yaqqol buziladi, kattalar kabi iboralar ishlatib gapiradi, bir xil so‘zlarni takrorlab yuradi, shaxslararo muloqotga kirishmaydi. Xavflardan qo‘rqmaydi, ammo oddiy buyumlardan qo‘rqadi. Ba’zi bir g‘ayritabiyy qobiliyati namoyon bo‘ladi. Masalan, eslab qolish qiyin bo‘lgan sonlarni, murakkab matnli she’r, q‘shiqlar so‘zlariniesda saqlash, o‘qib bo‘lmaydigan yozuvlar yozishi mumkin. O‘smirlik autizmida belgilarga autistning gormonal o‘zgarishlari ham qo‘shiladi. Autizm tashxisini tor doiradagi mutaxassislar xususan, psixiatr, psixonevrolog, nevropotolog, defektolog, psixologlarning xulosalariga tayanib belgilanadi.

Autizm belgilar qaysi yoshda paydo bo‘ladi? Oxirgi izlanishlarga asoslanib, autistik o‘zgarishlar bolaning 2-3 yoshlaridan boshlab yuzaga chiqadi desak bo‘ladi. Emizikli bolalarda esa hayotiy xususiyatlar ya’ni ota-onalarni tanish, kulish, qo‘zg‘atuvchilarga bo‘lgan sezgining yo‘qligi: taktil, yorug‘lik, tovush va shu kabilar. Ammo bu yoshda autizmga faqatgina aniq belgilar yuzaga chiqsa gumon qilsa bo‘ladi. Odatda belgilarni mutaxassisdan ko‘ra yaqin qarindoshlar orasida autist farzandlari bor ota-onalar aniqlashadi. Shunday qilib, autizmni ko‘pincha oilada aniqlashadi. Yosh oilalar o‘zlariga ishonch hosil qila olmaydilar ya’ni bu o‘ziga xosliklar bolaning xususiyatimi (xarakteri) yoki rivojlanishning buzilishimi.

Autizm diagnozi o‘rtacha 2,5-3 yoshlarda qo‘yiladi. Bu yoshga kelib bolada umumiyl belgilar yuzaga kela boshlaydi, o‘z tengdoshlari rivojlanishda oldinga o‘tib ketadi. Bolaning qabul qilib olish, o‘rganish, moslashish xususiyatlari yo‘qoladi yoki sekinlashadi va uzoq vaqt talab qiladi. Autizm kasalligida erta aniqlash va ularga alohida erta parvarish qilish bolaning hayotga moslashishida ancha katta yordam beradi. Shuning uchun chet el olimlari bolani 1-1,5 yoshlarda mustaqil ravishda test qilib ko‘rishni tavsiya qiladilar. Qobiliyatlarni aniqlash uchun quyidagi holatlarga ahamiyat berish kerak:

Bolaga ota-onan qo‘lida bo‘lish yoqadimi yo‘qmi, tizzada olib o‘tirilganda bolaning emotsiyasi, yig‘laganda yoki uxlashidan oldin ota-onaga ehtiyoj sezadimi yo‘qmi?;

Boshqa bolalarga qiziqishi bormi?;

O‘yinlar o‘ynashga ishtiyoqi bormi yoki yo‘qmi? (qo‘g‘irchoqlarni ovqatlantirish, ovqatlar pishirish, soldatchalar o‘ynash, mashina va shu kabilar);

Ko‘zlari bilan atrof olamni kuzatadimi, yoki qo‘llaringiz harakatini kuzatadimi yo‘qmi?;

Bola ota-onan bilan o‘ynashni yoqtiradimi yo‘qmi?;

Barmoqlaringiz bilan ko‘rsatayotgan narsalarga qaraydimi yo‘qmi? (biror bir o‘yinchoq, hayvon shu kabilar).

Barcha savollar bolaning atrof muhitga va odamlarga bo‘lgan qiziqishini aniqlashga qaratilgan. Agar 1,5 yoshgacha bo‘lgan bolalarda yuqoridagi savollardan ko‘pchiligi manfiy bo‘lsa, bolani mutaxassisga olib borish kerak. Shuni unutmaslik kerakki, yuqoridagi reaksiyalar faqatgina autizm uchungina xos bo‘lmay, balki bolalarda eshitish qobiliyati yo‘qligi, e’tibor yetishmaslik sindromi va shizofreniyaga moyil bolalarda ham kuzatilishi mumkin.

Autizm turlari Autizm kasalligi yoshga qarab quyidagilarga bo‘linadi.

Erta bolalik autizmi – 2 yoshgacha;

Bolalik autizmi – 2-11 yoshgacha;

O‘smirlik autizmi 11-18 yoshlarga.

Har bir davr uchun spetsifik belgilar farqlanadi, ular bola yoshiga qarab o‘zgarib turishi mumkin. Autizm haqidagi ma’lumotlar kasallikni erta aniqlash va uni bartaraf etishga yordam beradi, qancha erta davo boshlansa, bolaning tashqi muhitga adaptatsiyasi shuncha osonlashadi.

Autizm belgilari: Autizm bolalarda ularning yoshiga, kasallik darajasiga qarab 4 xil ko‘rinishda keladi:

- 1.Ijtimoiy qoloqlik;
- 2.Muloqotda o‘z-o‘zi bilan gaplashish, har xil qo‘l harakatlari qilish;
- 3.Umumiy belgilarning erta boshlanishi.
4. 3 oylikdan 2 yoshgacha bo‘lgan bolalarda quyidagi belgilar ko‘zga tashlanishi mumkin: Bolaning onasiga be e’tiborlikligi (kulish, jismoniy harakatlar, ovoz chiqarishlar);
 - Bolaning “tayyorgarlik” holati yo‘qligi ya’ni uni ko‘tarishga uringanda qo‘llarini cho‘zmasligi, tizzalarida turishga harakat qilmasligi, emishdan butunlay to‘xtashligi;
 - Jamoa bilan o‘ynashni istamaslik, ota-onada va boshqalar bilan o‘ynaganda injiqlik qilish, yolg‘iz holda o‘ynashni xohlash;
 - Sezuvchanlikning oshib ketishi ovoz, yorug‘likka bo‘lgan. Bundan tashqari qo‘rqtish, baqiriq, arg‘imchoq uchish kabi o‘yinlar paytida injiqliklar qilish;
 - Gapirish qobiliyatining sustayishi, hatto mutizm holatigacha. Exolaliyalar, ya’ni so‘zlarni takrorlash, ota-onadan eshitgan iboralarni qayta-qayta aytib yurish yoki multfilmda eshitgan so‘zlarni doimo aytib yurish, bu Asperger sindromi deyiladi;
 - Tanlab ovqat yeyish, ishtaha sustligi, uyquning yomonlashuvi;
 - Buyruqlarni bajarmaslik, buyumlarni ko‘rsatsa qaramaslik, o‘zining ismiga e’tibor bermaslik;
 - Belgilangan tartibga qat’iy rioya qilishi, ya’ni bir vaqtda uyg‘onishi, buyumlarni bir joyda saqlash, jismlar shakliga qarab saralash va shu kabilar;

2 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan autist bolalarda quyidagi belgilar qo‘shilishi mumkin:

So‘zlashish qobiliyatining yaqqol buzilishi kattalar kabi iboralar ishlatib gapirish, bir xil so‘zlarni takrorlab yurish, dialogga kirishmaslik;

Xavflardan qo‘rmaslik: balandlik, avtotrassa, hayvonlardan qo‘rmaslik, lekin oddiy buyumlardan qo‘rqish, masalan qaynab turgan choynak, elektr yoqgich va shu kabilar;

Harakatlardagi takrorlar aylanib turish, tebranib turish, imo-ishoralarning takrorlanishi;

Jahldorlik, kulgi, vahimaning o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi;

Ba’zi bir g‘ayritabiyy holatlarga e’tibor qaratish, masalan eslab qolish qiyin bo‘lgan sonlarni eslab qolish, qo‘shiqlar so‘zlarini esda saqlash, o‘qib bo‘lmaydigan yozuvlar yozish;

O‘smirlik autizmida belgilarga autistning gormonal o‘zgarishlari ham qo‘shiladi.

Diagnozni faqatgina belgilarga asoslanib, psixiatr shifokor qo‘yadi. Ko‘pchilik autist bolalar adabiyotlarda keltirilgan autizm belgilariga mos kelmasligi mumkin. Ba’zi hollarda autist bolalar insonlar bilan muloqotga ham kirishishlari mumkin, bu esa diagnoz qo‘yishda qiyinchiliklar tug‘diradi.

Autizmni davolash Hozirgi kunda autizmni medikamentoz davolash usullari o‘ylab topilmagan faqatgina korreksiya qilish mumkin. Bundan tashqari, ota-onalar pedagog, psixiatr, psixolog, pediatr bilan hamkorlikda bemor bolalar bilan barvaqt shug‘ullansalar, ularning xatti-harakatlarini ijobiy tomonga yo‘naltirishlari mumkin. Davolash maqsadida ortda qolayotgan jihatlarni korreksiya qilish uchun barcha turdagи autist bolalarga mos keladigan quyidagi chora tadbirlar qo‘llash mumkin:

- Gapirish qobiliyatini yaxshilash maqsadida logoped bilan mashg‘ulotlar olib borish;
- So‘zlashish uchun rasmi kartochkalardan foydalanish yoki planshet, kompyuterda so‘zlarni yozib o‘rgatish;
- Bola bilan har xil o‘yinlar o‘ynash, bir sferada faqat bir mutaxassis bilan;

Medikamentoz davo faqatgina qo‘shimcha sifatida bolada kuchli agressiya bo‘lsagina buyuriladi. Autizmga chalingan bemor bolalarni qanday bo‘lsa, shunday

qabul qilish kerak. Kattalar buni o‘z vaqtida aniqlab, ularni qo‘llab-quvvatlashlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Astapov, V. M. neyro va patopsixologiya asoslari bilan tuzatish pedagogikasi [elektron resurs] / V. M. Astapov. - M.: Per SE, 2006 yil. - 176 p. –Kirish rejimi: URL: <http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=233327>
2. Baenskaya, E. R. hissiy rivojlanishning dastlabki buzilishlarida psixologik yordam / E. R. Baenskaya, M. M. Libling. - M.: poligrafiya xizmati, 2014. – 156 p.
3. Ivanov, E. S. Bolalar autizmi: diagnostika va tuzatish / E. S. Ivanov, L. N. Demyanchuk, R. V. Demyanchuk. - Sankt-Peterburg.: "Didaktika ortiqcha", 2014 yil. - 80 p.
4. Karaseva, E. G. Maktabgacha yoshdagи bolalarni inklyuziv o'qitish va tarbiyalash nogiron yoshi [elektron resurs] / E. G. Karaseva. - M.: ruscha so'z, 2018 yil. – 65 p. - kirish rejimi:
URL: <http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=486293>
5. Laysheva, O. A. Erta bolalik autizmi: reabilitatsiya yo'llari [elektron manba] / O. A. Laysheva, V. E. Jitlovskiy, A. V. Korochkin, M. V. Lobacheva. - M.: Sport, 2017 Yil. –